

“O‘ZBEKKO‘MIR” AJ: 2024-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR TO‘G‘RISIDA MA‘LUMOT

O‘zbekiston ko‘mir sanoati respublika yoqilg‘i-energetika majmuining muhim tarmog‘i bo‘lib, “O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyati ko‘mir qazib chiqaruvchi va yetkazib beruvchi yirik va yetakchi korxonalar hisoblanadi. Jamiyat tashkil etilganidan buyon o‘tgan 77 yil davomida iqtisodiyot tarmoqlari, budget tashkilotlari va aholiga arzon va sifatli mahalliy ko‘mir yetkazib bermoqda. Ayni kunlarda jamiyat tasarrufida 11 ta korxonalar bo‘lib, ularning uchasi (“Angren”, “Apartak” va “Shaxta usulida ko‘mir qazib olish konlari”) asosiy korxonalar hisoblanadi. Jamiyatda bugungi kunda 6 ming nafardan ziyoroq kishi mehnat qiladi.

Jamiyatda 2024-yil yakunlari quyidagicha bo‘ldi:


ISHLAB CHIQRISH VA REALIZATSIYA BO‘YICHA: 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kon ustini ochish ishlari 28,1 mln. kub metr yoki prognozga nisbatan 57,8 foiz bajarildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 121,6 foizni tashkil qildi. Ko‘mir qazib chiqarish 6 765,9 ming tonna yoki prognozga nisbatan 109,1 foiz (6 200,0 ming tonna) bajarildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 115,9 foizni tashkil etdi.

Iste‘molchilarga 5 882,6 ming tonna ko‘mir yetkazib berildi, prognozga nisbatan 97,0 foiz (6 063,8 ming tonna) bajarildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 109,0 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarish amaldagi narxlarda 1 795,9 mlrd. so‘mga bajarilib, rejaga nisbatan 102,8 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarish taqqoslama narxlarda 1 596,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, rejaga nisbatan 107,0 foizga bajarildi. O‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 113,3 foiz.

Ko‘rsatkichlar nomlanishi	O‘lchov birligi	Prognoz	Amalda	+/-	%	O‘shish, %
Ishlab chiqarish amaldagi narxlarda	mlrd.so‘m.	1 746,2	1 795,9	49,8	102,8	122,2
Ishlab chiqarish taqqoslama narxlarda	mlrd.so‘m.	1 492,18	1 596,78	104,6	107,0	113,3
Ko‘mir qazib olish	ming tonna	6 200,00	6 765,4	565,9	109,1	115,9
Ko‘mir yetkazib berish	ming tonna	6 063,80	5 882,68	- 181,1	97,0	109,0
Kon yuzasini ochish	mln.m ³	48,6	28,1	-20,5	57,8	121,6


Ishlab chiqarish amaldagi va taqqoslama narxlarda

■ Ishlab chiqarish amaldagi narxlarda mlrd.so'm. ■ Ishlab chiqarish taqqoslama narxlarda mlrd.so'm.



"O'zbekko'mir" AJning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkchilari

■ Prognoz ■ Amalda



KO‘MIR TA‘MINOTI BO‘YICHA: 2024/2025 yillar kuz-qish mavsumi uchun respublika aholisi va byudjet tashkilotlariga jami 1 898,7 ming tonna ko‘mir yetkazib berilishi rejalashtirilgan. Shundan, aholiga 1 248,7 ming tonna, byudjet tashkilotlari uchun jami 650 ming tonna, to‘g‘ridan-to‘g‘ri byudjet tashkilotlariga 388,4 ming tonna (DXSH asosida tadbirkorlik sub‘ektlariga 261,6 ming tonna) mahalliy ko‘mir yetkazib berilishi rejalashtirilgan.

Hisobot yilining 31 dekabr holatiga:

- Byudjet tashkilotlariga shartnomaga nisbatan 377 185 tonna (100%) ko‘mir ortib yuborildi, 377 532 tonna (realizatsiya) mahalliy ko‘mir yetkazib berildi.
- DXSH asosida tadbirkorlik sub‘ektlariga shartnomaga nisbatan 238 118 tonna (99%) ko‘mir ortib yuborildi, 234 029 tonna (realizatsiya) mahalliy ko‘mir yetkazib berildi.
- Aholiga 1 276 264 tonna (103%) mahalliy ko‘mir ortib yuborildi, 1 222 450 tonna (realizatsiya) mahalliy ko‘mir yetkazib berildi.
- Respublika bo‘yicha olis va borish qiyin bo‘lgan qishloq (ovul)larga 75 212 tonna (102,3%) mahalliy ko‘mir mahsulotlari yetkazib berildi.

Aholi uchun 1 tonna ko‘mir – 309 800 so‘mdan, byudjet tashkilotlari uchun 1 tonna ko‘mir – 431 400 so‘mdan realizatsiya qilindi. Ko‘mir mahsulotlari aholiga hududlardagi MFYlar tomonidan shakllantirilgan hamda mahalliy hokimliklar tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatga asosan “Ko‘mir ta‘minot” MChJning respublikadagi jami 90 ta hududiy ombori va 13 ta shoxobchasi orqali tarqatilmoqda.

MUROJAATLAR BO‘YICHA: Tahlillarga ko‘ra, “O‘zbekko‘mir” AJga 2024-yil davomida jami 454 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularning salmoqli qismi - yuridik shaxslar 8 ta (1,8%) va jismoniy shaxslar 446 ta (98,2%)ga to‘g‘ri keladi. Mazmuniga ko‘ra, mehnat munosabatlari bo‘yicha 11 ta (2,4%), ko‘mir yetkazib berish va sifati bo‘yicha 135 ta (29,8%), oylik maosh masalalari bo‘yicha 6 ta (1,3%), moddiy yordam masalasi bo‘yicha 134 ta (29,5%), rahbar va mansabdor xodimlarning noqonuniy xatti-harakatlari masalalari bo‘yicha 91 ta (20%) va turli masalalar bo‘yicha 77 ta (17%) murojaat kelib tushdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Ishonch telefon orqali 290 ta murojaat kelib tushgan, shundan, 103 ta (35,5%) qanoatlantirilgan, 16 ta (5,5%) tushuntirish berilgan, 7 ta (2,4%) rad etilgan, 7 ta (2,4%) ko‘rib chiqilmoqda. Jumladan, ish haqini o‘z vaqtida berilishini so‘rab 7 ta, mehnat munosabatlari masalasida 11 ta, boshqa turli masalalar bo‘yicha 157 ta, sifatli ko‘mir mahsuloti yetkazib berish bo‘yicha 90 ta, moddiy yordam berilishini so‘rab 13 ta, rahbarlar harakati ustidan norozi bo‘lib 12 nafar murojaat kelib tushgan.

KADRLAR MASALALARI BO‘YICHA: Ko‘mir sanoati korxonalarini uchun kadrlar tayyorlash Toshkent Davlat texnika universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent Davlat transport universiteti, Jizzax Politexnika instituti, Namangan Muhandislik Qurilish instituti, Farg‘ona Politexnika instituti, Andijon Iqtisodiyot va

Qurilish instituti, Qarshi Muhandislik-Iqtisodiyot instituti tomonidan amalga oshiriladi. 2024-yilda Toshkent Davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, Farg'ona Politexnika instituti, Angren shahar 1- va 2-sonli kasb-hunar maktablari bilan talabalarning amaliyot o'tashlari bo'yicha shartnomalar imzolangan. Hisobot yilida jamiyatda 857 nafar xodimning malakasi oshirildi.

Ishchi-xodimlarni lavozimdan lavozimga (boshqa ishga) o'tkazish va rotatsiya qilish, "O'zbekko'mir" AJning 2024-yil 1-maydagi 194-sonli buyrug'ida tasdiqlangan Nizomga asosan yo'lga qo'yilgan. Ishga qabul qilish va boshqa lavozimga o'tkazish bo'yicha doimiy komissiya tarkibi tomonidan shaffoflik, xolislik va oshkoralik asosida amalga oshirish maqsadida fuqarolar murojaatlari "O'zbekko'mir" AJ www.uzbekcoal.uz onlayn sayti orqali amalga oshiriladi. Jamiyat va uning tarkibiy bo'linmalariga yil davomida 330 ta bo'sh o'rinlarga 89 ta tanlov o'tkazildi. Yil davomida tanlov va Davlat dasturlari asosida 706 nafar fuqaro ishga olingan.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA: Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha sohasiga oid ichki me'yoriy hujjatlar tasdiqlangan, chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, ISO 37001:2016 xalqaro standarti doirasida belgilangan vazifalar amalga oshirilmoqda. Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo'yish, korrupsiya oqibatlarini, shuningdek, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish aniqlangan holatlarni bartaraf etish maqsadida, aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi joylashgan 11 ta filiallar faoliyatini tartibga solib turuvchi barcha hujjatlari o'rganib chiqish bo'yicha reja-grafik ishlab chiqilgan bo'lib, hisobot davrida 11 ta filialda o'rganishlar o'tkazildi.

Hisobot davrida 1 ta matbuot anjumani, 36 ta profilaktik tadbirlar va davra suhbatlari o'tkazilgan. Muddati o'tgan yoki bajarilmagan tadbirlar mavjud emas. Bugungi kunda Jamiyat boshqaruv apparati Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limida 1 ta shtat birligida 1 nafar xodim va "Moddiy-texnik ta'minot va ijtimoiy soha filiali" da 2 ta shtat birligida 1 nafar xodim faoliyat olib bormoqda. 1 ta shtat birligi vakant.

"O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyatining Komplaens-nazorat va korrupsiyaga qarshi xizmat tomonidan yil davomida xodimlar va ishchilar o'rtasida korrupsiyaga qarshi murosasizlikni oshirish, korrupsiyaning har qanday holatlariga qarshi turish maqsadida Jamiyat me'yoriy hujjatlar hamda Korrupsiyaga qarshi qonunni yoritib beruvchi 6 ta ko'rgazmali o'quv materiallar tayyorlandi. Jamiyatning tarkibida bo'lgan jami 11 ta filiallarda hamda respublika miqyosida mas'ullar tomonidan korrupsiyaviy holatlar, uning huquqiy oqibatlari, o'zaro sovg'alar berilishi aks ettirilgan bannerlar mazmun-mohiyati va korrupsiyaga qarshi siyosat mazmuni tushuntirib kelinmoqda. Shuningdek, jamiyatning tarkibiy bo'limlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosat" va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan to'liq tanishtirilib, alohida tanishtiruv jurnallarini yuritish yo'lga qo'yilgan.

"O'zbekko'mir" aksiyadorlik jamiyatining tarkibidagi barcha filiallarga ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadigan xodimlar to'liq mehnat shartnomalariga qo'shimcha kelishuv imzolashlari yo'lga qo'yilgan. "O'zbekko'mir" AJga ishga qabul

qilinayotgan har bir xodim bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi bandlar, jumladan, pora olish, pora berish va pora berishda vositachilik qilishga javobgarlik mavjudligi to'g'risida bandlar qo'shilgan.

2024-yil davomida ishga olish bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar hamda jamiyatning rasmiy sayti orqali jami 21 ta e'lon joylashtirilgan bo'lib, ishga qabul qilish jarayonida ishtirok etib, ishga qabul qilingan 706 nafar xodimlarning barchasidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar olindi. Xodimlarga beriladigan ustamalar, ishga qabul qilishdagi ochiq va shaffof tanlov o'tkazilishi yuzasidan filiallarda tushuntirish ishlari olib borilmoqda. 2024-yil davomida aloqa kanallari orqali korrupsiyaga oid murojaatlar kelib tushmadi.

Korxonada aniqlangan 1 ta qoidabuzarliklar yuzasidan 1 ta xizmat tekshiruvini o'tkazish ishi boshlangan bo'lib, tegishli idoralarning xulosalari hamda qo'shimcha o'rganish uchun amaliy yordam talab etilganligi bois, tekshiruv davom etmoqda. "O'zbekko'mir" AJda 2024-yil davomida xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan 2 ta profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi turish, illatning payini qirqish faqat tegishli organlarning emas, barchaning ishi ekanligi yuzasidan targ'ibot va tadbirlar o'tkazildi.

OCHIQLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son farmoniga muvofiq jamiyat faoliyatining ochiqligini ta'minlash maqsadida 2024-yil davomida 2 marta matbuot anjumani, 1 marta press-tur, 1 marta brifing o'tkazildi.

1. "O'zbekko'mir" AJ: 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar" mavzusida matbuot anjumani, AOKA, 19-mart (<https://fb.watch/qUYLPBam6B/?mibextid=Nif5oz>, <https://www.youtube.com/live/MQvSSq0VWHO?si=QStARoGPEL9A2NhC>, <https://t.me/uzbekcoaluz/12743>, https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official/42808).

2. "Zamonaviy kon texnikalari ish unumini oshiradi" mavzusida "O'zbekko'mir" AJ "Angren" koniga press-tur. Angren sh., 30-may. https://fb.watch/suzWPI_73c/, <https://t.me/uzbekcoaluz/13326>, <https://t.me/uzbekcoaluz/13357>, O'zA – <https://uza.uz/posts/603873>.

3. "O'zbekko'mir" AJ faoliyatining 2024-yil 1-yarim yillik yakunlari" mavzusida matbuot anjumani, O'zMMM, 25 iyul (https://www.facebook.com/watch/live?ref=watch_permalink&v=1239748397039176, <https://t.me/uzbekcoaluz/13624>, <https://www.youtube.com/live/MQvSSq0VWHO?si=QStARoGPEL9A2NhC>, <https://t.me/MARKAZ16Uz/28183>, <https://uzbekcoal.uz/uz/news/1-yarim-yillikda-2-3744-ming-tonna-komir-qazib-olindi>).

4. “O‘zbekko‘mir” AJ tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar mavzusida brifing. AOKA, 10-dekabr. https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official/48371 (jonli efir), https://uza.uz/uz/posts/joriy-mavsumdan-aholiga-komir-etkazib-berish-elektron-platforma-orqali-amalga-oshirilmoqda_665947.

2024-yil davomida xorijiy ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan materiallar soni – 9 ta.

Jamiyat matbuot kotibi tomonidan jamiyatda oliy, choraklik va yillik faoliyat natijalari haqida axborot resurslarida muntazam ravishda bayonotlar va axborotlar berib borildi.

Hisobot yilda korxonalar faoliyatini targ‘ib qilish bo‘yicha O‘zbekiston Milliy Axborot Agentligi – O‘zA, O‘zbekiston MTRK hamda respublikamizning yetakchi gazeta va jurnallari – “Yangi O‘zbekiston”, “Правда Востока”, “Darakchi” gazeta va jurnallari, shuningdek, xorijiy OAV bilan aloqalar mustahkamlanib, maqolalar, ko‘rsatuv va eshittirishlar e‘lon qilindi.

OAV va ijtimoiy tarmoqlarda 2024-yil davomida mahalliy ko‘mir mahsulotining sifati, tarqatilishiga oid tanqidiy chiqishlarga o‘z vaqtida munosabat bildirildi, asossiz tanqidlarga esa 12 ta munosabat va raddiya berildi.

Jamiyat bugungi kunda global internet tarmog‘ida rasmiy veb-sayti (<http://uzbekcoal.uz/>) ishlab turibdi va u kundalik axborotlar va ma‘lumotlar bilan yangilanib borilmoqda. Ijtimoiy ahamiyatga molik ochiq ma‘lumotlar hamda komplaens nazoratga oid ma‘lumotlar menyudagi alohida bo‘limlarda joylashtirib borilmoqda. Shuningdek, Telegram messenjeri, Facebook, TikTok, Instagram, Twitter platformalari hamda YouTube kanalidagi maxsus sahifalarida jamiyat hayoti va ko‘mir sanoatiga oid axborotlar muntazam joylashtirib borilmoqda.

2024-yil davomida jamiyatning sohaga oid nashri – “O‘zbekko‘mir” gazetasi (https://t.me/gazetalar_sharhi/34072) har birining adadi 1000 (ming) nusxadan bo‘lgan 9ta soni chop etildi va tarqatildi.